

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TABIATGA OID ILK INVARIANT VA VARIATIV
TUSHUNCHALARNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI**

Abdurahmonova Muslima

Denov tadbirkorlik va pedagogika isstituti pedagogika fakulteti Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) yo`nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *O'quvchilarni tabiatsevar qilib tarbiyalashda, dastlab umumiy tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bilib olishimiz kerak. Umumiy tarbiyani singdirishda tabiat elementlari, uning boyliklari, jonli va jonsiz tabiatdagi materialistik nuqtai nazardan foydalanib, yoshlarni uning sir-asrorini to'liq bilib olishga, o'rganishga va ulardan oqilona foydalanishga o'rgatishimiz lozim.*

Kalit so'zlar: *tabiat, invariant, variativ, tushuncha, mahalla, ko'rsatma.*

Аннотация: *Чтобы воспитать учащих как любителей природы, мы должны прежде всего усвоить цели и задачи общего образования. В общем образовании мы должны использовать материалистическую точку зрения на стихии природы, ее богатства, живую и неживую природу и учить молодежь до конца понимать ее тайны, познавать и разумно пользоваться ими.*

Ключевые слова: *природа, инвариант, вариант, концепт, соседство, инструкция.*

Atrofdagi olam bilan tanishish bo'yicha materiallarni o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ularning har taraflama yetuk shaxs bo'lib rivojlanishi maqsadida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalar hal qilinadi. O'quvchilarga o'z qishlog'i va shahalari misolida jamiyat hayoti bilan tanishtiriladi. Shu orqali o'quvchilarning tabiatga oid ilk invariant va variativ tushunchalari takomillashtiriladi. Ularni tabiat bilan tanishtirishning, tabiatda bo'ladigan voqea - hodisalarning, o'simlik va hayvonot olamining roli beqiyos. Birinchi sinf o'quvchilariga "Tabiatshunoslik" fani emas, balki "Tabiiy" fanlar o'qitiladi.

Bunda maktab o'quvchilarga tabiatshunoslikka oid ilk tushunchalar berishdan oldin, o'quvchilarga atrofidagi olam haqida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Bu jarayon o'quvchilarning tabiatga moslashishida bosqichma - bosqich amalga oshiriladi. O'quvchi psixologiyasida tog'ridan to'g'ri berilgan, uzviyligi bo'lmagan tushunchalarni o'zlashtirishi murakkab bo'ladi. Avvalo, u maktabga kelganligi, maktab muhitiga moslashishi uchun unga shu atrof muhitga tegishli tushunchalar berib borilishi va o'sha tushunchalarni sekin-asta tabiatga bog'lab o'tilishi maqsadga muvofiqdir.

Bu tushunchalar quyidagi mavzular asosida amalga oshiriladi:

- bizning maktab;
- bizning sinf;
- bizning mahalla;

- o'quvchining kun tartibi;
- shaxsiy gigiyena;
- quyosh va ob-havo;
- yil fasllari;
- o'simliklar dunyosi;
- hayvonot dunyosi.

Shu qatori bir qancha yo'nalishlar bo'yicha o'quvchi bilimlari shakllantirilib boriladi. Boshlang'ich sinf "Tabiiy" fanlar darsligida ayrim fanlarning elementlari o'rgatilib, tushunchalar berib boriladi. Bunday tushuncha va bilimlar o'quvchilarga birinchi sinfdan singdiriladi va ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi sinflarda kengaytirilib, chuqurlashtirilib boriladi. Birinchi, ikkinchi sinflarda o'quvchilarning xotira, fikrlash, mushohada, tasavvur qilish ko'nikmalari yosh xususiyatiga ko'ra, ancha tor doirada bo'ladi. Shunga ko'ra beriladigan bilimlar sodda, hayotiy tarzda darslik materiallarini singdirish bilan cheklanadi. Ularda :

- o'quvchi atrofida bo'layotgan oddiy voqea - hodisalarga oid tushunchalar o'quvchilarning maktabga kelganda, maktab nima ekanligi, sinfxona va dars jarayoni haqidagi tushunchalar beriladi. Bu jarayonga qanday munosabatda bo'lish kerakligi, oila va mahallaga bo'lgan munosabatlar orqali o'quvchilar orientr olishga o'rgatiladi, ko'cha - ko'yda qanday harakatlanish zarurligiga tegishli ko'rsatmalar haqida korsatmalar beriladi:

- o'quvchiga shaxsiy gigiyena va kun tartibi nima uchun kerakligi haqida turli rasmlar beriladi va o'quvchidan munosabatlari so'rab, ularga asoslangan ma'lumotlar berish orqali sog'lomlashtirishga, odam salomatligi haqida;

- ilk tabiatdagi bo'layotgan o'zgarishlar, quyosh, quyoshning ob - havoga ta'siri, tabiat hodisalari, havo harorati, kun qismlari, soya, soya orqali orientr olish haqida;

- yil fasllari, oylar haqida ma'lumotlar, fasllarga oid rasmlar berish orqali shu fasllarda qanday ishlar qilinishi haqida;

- o'simliklarning klassifikatsiyalari, o'simliklarning qismlari va ularning o'sishi, gullar va gullar parvarishi, bog' va mevalar yetishtirish haqida;

- ayrim uy hayvonlari va parrandalarni o'rganishda shakllanadigan tavsiflovchi, ularni nima maqsadda boqish, yovvoyi hayvonlar va ularni turkumlash, qushlar, hasharotlar va ularning tuzilishi, foydali va zararli tomonlari haqida;

- biz foydalanadigan narsalar, uydagi xonalar joylashuvi, xonalardagi jihozlar, gaz va elektr jihozlardan qanday foydalanish, baxtsiz hodisa yuz berganda birinchi qayerga murojaat qilish, kompyuterning nimaligi, qayerlarda ishlatilishi va bolalar uchun zararli tomonlari haqida;

- bizning o'lkamiz- ulkan binolar, zamonaviy korxonalar ta'lim dargohlari, mamlakatimiz tabiati haqida;

- suv, suv manbalari, suvning tabiatda qanday paydo bo'lishi haqida;

- mening shahrim (qishlog'im), tabiat va biz, yashil dorixona haqida ilk tushunchalar taqdim etilgan.

Bu orqali darslar o'tish, berilayotgan tushunchalar o'quvchilar ongida to'liq

gavdalanadi. Ularning fanga nisbatan qiziqishlari ortadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim samaradorligini oshiradi.

Maktab ta'limi bola hayotining muhim bir bosqichidir. Bu pallada u shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Ana shu jarayonni to'g'ri yo'lga oluvchi insonlar bu boshlang'ich sinf o'qituvchilaridir. Ulardan bu borada kuchli ma'suliyat, salohiyat, bilim talab qilinadi. Shuning uchun 1-2-sinflarda "Tabiiy va 3-4-sinflarda", "Tabiatshunoslik" fanlarini o'itishda o'quvchilarga tabiatni asrab - avaylash, uning manbalaridan oqilona foydalanish, odam va uning salomatligiga doir tushunchalar, foydali qazilmalar va ularning davlat iqtisodiga ta'siri kabi tushunchalar berish uchun dars soatlari ajratilgan. Tabiatshunoslik so'zi "Tabiat" hamda forcha "Shenoxtan" (o'rganmoq) so'zlaridan tuzilgan. Tabiatshunoslik o'zi nima? Tabiatshunoslik - bu tabiiy hodisalarni belgilovchi farazlarni tajribada tekshirish va shu orqali nazariya yoki empiric umumlashtirishlar yaratishga asoslangan fandır.

1-2-sinflarda "Tabiiy" fanlarini o'itish orqali "Tabiatshunoslikning" eng dastlabki tushunchalari tanishtiriladi. Har bir darsni o'tish jarayonida shu dars boshqa fanlar bilan bevosita bog'lab o'tilishi kerak. Masalan, eng dastlabki tushunchalar, tabiatda o'zini tutish qoidalari, gullarni uzmaslik, daraxt shohlarini sindirmaslik kerakligini xalq pedagogikasi materiallaridan foydalangan holda, odobnoma darslariga bog'lab ham o'tish mumkin.

Tabiatda o'zini tutish eng avvalo jamiyatning kichik bo'lagi sanalmish oilada amalga oshiriladigan jarayon. Dars jarayonida sahna ko'rinishlari orqali tabiatda o'zini tutish qanday bo'lishligi ko'rsatib beriladi. Bu o'rinda milliy tarbiyamizga murojaat qilib: suvga tufdash gunohi azim, begunoh jonivorlarni qirish kechirilmas gunoh ish deya diyonat, odamgarchilik g'oyalarini ularga tushuntirib, ongiga singdirishimiz kerak. Odamlar tabiatdan faqat foydalanmay uni muhofaza qilishni ham bilishi kerak. Toza havo uchun kurashda bizga "Yashil do'stlarimiz" o'simliklar yordam berishini, ular havodagi zaharli va foydasiz changlarni ushlab qolishini misollar yordamida tushuntirishimiz kerak.

3-sinf "Tabiatshunoslik" darslarida o'rab turgan tabiat, undagi jismlar, tuproq, suv, havo, foydali qazilmalar, shuningdek, o'simlik va hayvonat dunyosi, sog'liqni va tabiatni himoyalash kabilar bilan tanishtiriladi, tushunchalar beradi. Misol uchun, foydali qazilmalar haqida, uning davlat tayanchi ekanligi uqtiriladi. U davlat iqtisodining sezilarli qismini tashkil qiladi. Lekin ulardan ham noo'rin foydalanish oqibati taqchilikka olib kelishi tushutiriladi. Masalan, tabiiy gazni isrof qilish oqibatida gaz zaxiralari tugab qolishi mumkin.

4-sinflarda ekologik muammolar bilan yanada chuqurroq tanishtiriladi. "Uyimiz ekologiyasi", "Ko'chamiz ekologiyasi", "Mahallamiz ekologiyasi" mavzularini ko'tarib, o'quvchilarga mustaqil ishlar, ko'rgazmalar tanlovlari, she'rlar va hikoyalar tanlovlari nainki sinfda balki maktablar aro tashkil qilish ham maqsadga muvofiq. Konstitusiyamizda tabiatga, atrof-muhitga munosabatlari qonun bilan belgilab qo'yilgan. Masalan, 50-moddasida: "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majbur" deyilgan.

Tabiatni muhofaza qilishga bag'ishlangan Davlat qonunlari, "Qizil kitob" kabi tushunchalarni muntazam berib borishi kerak. Yoshlarga atrof - muhitni muhofaza qilish va

uni yaxshilash ta'limining asoslarini hozirgi tasavvurlarga ko'ra beshta fazaga bo'lish mumkin:

- dunyo moddiydir va murakkab bog'lanishlar tizimidan iboratdir, uning elementlarini o'zgarishi o'zaro bog'langandir;

- tabiatni muhofaza qilishda dunyoning moddiylik qonuniyatlarni va ularning o'zaro ta'siri va munosabatlarini ifodalaydigan dasturlar va o'quv qo'llanmalari bo'lishi zarurligi;

- insoniyat va jamiyat jonli tabiat evolyutsiyasining natijasi va shuning uchun tabiatning ajralmas qismi ekanligi;

- hosil bo'lgan o'zgarishlar va jamiyat uchun zararliligi tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning boshqarma mexanizmi yo'qligi yoki taraqqiyot ilmiy-texnik jihatdan asoslanmaganligi;

- tabiat jamiyatning rivojlanish tezligiga ta'sir etishi, ammo lekin uning munosabatlar xarakteriga ta'sir ko'rsatmasligi.

Mana shu metodologik asoslardan kelib chiqqan holda yoshlarga muhiti muhofaza qilish va uni yaxshilash bo'yicha hozirgi zamon ekologik muammolari haqida ilmiy asoslangan tabiatga oid ilk invariant va variantiv tushunchalar haqida bilimlar berishi kerak. Atrof-muhitni himoya qilish ta'limoti ekologik ongli shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Avlodlar sog'lomligi uchun ekologik jihatdan sog'lom muhit kerak. Bunday muhitni faqat har tomonlama yetuk, ekologik jihatdan yuqori madaniyatga ega bo'lgan shaxslardan tashkil topgan jamiyatgina hosil qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasi. - Toshkent: Adolat, 1998. - 81 b.

2. O'zbekiston milliy ensiklopediya 8 T.: 2000. 801 b.

3. "Avesto" Sharq.T.: 2001. Mansur yashtlar. Farvardin qasidasi, 22-bo'lim, 79-band.

4. "Avesto" T.: 2015. Farvardin qasidasi, 31-bo'lim, 153-madh. 224 b.

5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 9. T.:2000. 485 b.

6. Ахлоқ - одобга оид ҳадис намуналари. -Тошкент: Фан, 1990. - Б. 172.

7. Аvezов Ш. Экологическое воспитание старшеклассников сельской школы в процессе краеведческой деятельности: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. - Ташкент, 1993. - 161 с.

8. Ашурова Н. Экологическое воспитание учащихся 3-4 классов сельских школ: Автореферат дис. ... канд. пед. наук. -Ташкент, 1993. -18 с.

9. Авазов Ш. Мактабда экологик тарбия. -Тошкент.: 1992.- 62

10. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M., "Tabiatshunoslik" darsligi 3-sinf. T.: "Cho'lpon" nashriyoti. 2019. - 128 b.

11. Bahromov A., va boshq. Tabiatshunoslik: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. 5-nashr / A. Bahromov, Sh. Sharipov, M. Nabiyeva - T.: "Sharq", 2020.-120 b.